



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JADID ADABIYOTINI O'QITISHGA YANGICHA YONDASHUV

Akramova Rashidaxon Valiyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi Ozbekiston Milliy universiteti

Filologiya fakulteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi

II bosqich magistranti

[rashidaakramova884@gmail.com](mailto:rashidaakramova884@gmail.com)

+998991384232

**Annotatsiya.** Umumta'lim maktablarida adabiy ta'limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritilib, o'quvchilariga zamonaviy adabiyot namunalarini o'rgatishning samarali usullari haqida fikr-mulohazalar bildirildi, adabiyot darslarida badiiy matn tahlili bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Аннотация.** Обсуждена важность использования современных педагогических технологий в организации литературного образования в общеобразовательных школах, даны отзывы об эффективных методах обучения учащихся образцам современной литературы, даны рекомендации по анализу художественных текстов на уроках литературы.

**Abstrakt.** The importance of using modern pedagogical technologies in the organization of literary education in general education schools was discussed, feedback was given on effective methods of teaching modern literature examples to students, and recommendations were given on the analysis of literary texts in literature classes.

**Kalit so'zlar :** maktabda adabiyot ta'limi, jadid adabiyoti, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, badiiy matn tahlili, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy.

**Ключевые слова:** литературное образование в школе, современная литература, современные педагогические технологии, анализ художественного текста, Абдулла Кадири, Чолпон, Фитрат, Махмудходжа Бехбуди.



**Keywords:** literature education at school, modern literature, modern pedagogical technologies, literary text analysis, Abdulla Qadiri, Cholpon, Fitrat, Mahmudhoja Behbudi.

Bugungi kunda bilimli va ma'naviyatli shaxs tarbiyasi ko'p jihatdan umumta'lim maktablari zimmasiga tushishligi ko'p bora ta'kidlab kelinmoqda. Ayniqsa, adabiyot ta'limi bu borada yetakchi va asosiy o'rinda turadi. Shundan kelib chiqib, adabiyot darslarida darslikda berilgan badiiy asarlarni o'rganishni o'qituvchi shunday tashkil etishi kerakki, bu jarayonda o'quvchining diqqat-e'tibori asarda nima deyilayotganligigagina emas, balki asardagi fikr qanday aytilayotganligiga, to'g'rirog'i muallifning mahorati qay darajada ekanligiga, ifodaning go'zallik darajasiga e'tibor qaratilishi lozim.

Badiiy asar matni tahlilga tortilish jarayonida o'z-o'zidan asar qahramonlarining xarakterli tomonlari, boshqalarnikiga o'xshamaydigan o'ziga xos xususiyatlari (bu ularning gap-so'zlarida va xatti-harakatlarida, boshqalar bilan muomala-munosabatlari tasvirida namoyon bo'ladi, albatta) ko'rinadi va yana mahorat bilan tasvirlangan joy va tabiat tasviri ham o'quvchi ko'z o'ngida asar voqealarini to'laqonli jonlantiradi. Buning uchun badiiy asar matnini alohida e'tibor va mahorat bilan tahlilga torta olish ham o'qituvchidan talab qilinadi.

Yosh avlodning kitobxonlik saviyasini oshirish, estetik didini yuksaltirishga, asarni yaratishda yozuvchi ruhiyatida kechgan holatlarning mohiyatini anglatishga, tuyg'ularini o'quvchi qalbida qayta jonlantirishga erishish yo'llarini aniqlash orqali o'quvchida ham o'ziga xos muayyan tuyg'u va fikr, nuqtai nazar, mushohada–muhokama, munosabatni yuzaga keltirish mumkin.

Adabiyot darslarida “O'tkan kunlar” romanini ana shu maqsadlardan kelib chiqib o'rganishdan avval qisqagina bo'lsa ham kirish mashg'uloti tashkil etish orqali Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi ekanligi, uning o'zbek nasrida realizmni boshlab berganligi, XX asr millat ma'naviy hayotida “O'tkan kunlar” romanining o'rni kabi masalalar yoritiladi.

Romanning ijodiy tarixi va taqdiri kabi masalalar yoritilayotganda esa o'qituvchi tomonidan “O'tkan kunlar” haqidagi risola va maqolalardan ayrim ko'chirmalarni



o'quvchilar e'tiboriga havola etish va shu kabi ma'lumotlar to'plamini yaratish taklifini berish mumkin.

Ma'lumki, romanda jamiyatning turli qatlamlariga mansub qahramonlar ishtirok etgan. Unda davlat boshqaruvi vakillaridan tortib, oddiy xalq vakiligacha – hamma-hammasi mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Ziyo shohichi, Homidlar – davlamand va savdogarlar muhiti vakillari; Azizbek, Musulmonqul, Xudoyorxon, O'taboy qushbegilar – hukmdor sinf vakillari bo'lib, muallif bu obrazlarni yaratishda tarixiy faktlarga va shaxslarga ham murojaat qilgan, o'z navbatida to'qima obrazlar ham talaygina.

Eng muhimi, barcha qahramonlarning xalq orasida mavjudligini o'quvchi uchun oydinlashtirish zarurki, o'quvchi adibga oson bo'lmaganligini, turli xarakterdagi odamlar obrazlarini yaratish va ularning va turli vaziyatlardagi holatlarini so'z vositasida tasvirlay olish alohida iste'dod va mahorat talab qilishini tushunib yetishi kerak. Bunga erishish uchun esa turli usullardan, o'quvchilarni tez va sifatli javob talab qiluvchi "Fikriy hujum", kichik guruhlarda yakka va frontal ishlashni talab qiluvchi "Bumerang", "Chig'iriq" kabi metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini to'g'ri tashkil etish maqsadida ularga romanning tahlili va talqinini yaratishlarini ta'minlashga qaratilgan topshiriqlar berish mumkin, masalan, "“Otkan kunlar” mening talqinimda", "Otabekka maktubim", "Kumushbibiga deganlarim", "“Otkan kunlar”da turfa taqdirlar" kabi mavzularni tavsiya etish mumkin. Uyga berilgan topshiriqlar o'quvchilarga individual ishlashlari va o'z shaxsiy fikrlarini yozma tarzda bayon eta olishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Bugungi adabiyot predmetining vazifasi go'zallikdan hayratlanishga, ezgulikdan quvonishga, yomonlikdan nafratlanishga, birovlarining tuyg'ulariga befarq bo'lmaslikka, o'zgalar dardida darddosh bo'la olishga o'rgatishdir. Endilikda o'quvchilar oddiygina badiiy asarlarni shunchaki o'qiydigan va mazmunini qayta hikoya qilib beradigan o'quvchidan kitobxon o'quvchiga, kitobxon o'quvchidan o'qiganlarini tahlil qila oladigan, o'z taassurotlarini, tuygularini, qarashlarini og'zaki va yozma bayon qila oladigan mustaqil o'quvchiga aylanishi zarurligi bugungi kun talabidir.



Shunday ekan, adabiyot ta'limida dramatik asarlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish zarur, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ustida ishlash jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining endi yosh bola emasligini, kattalardek fikrlay oladigan yoshga yetayotganligini, o'z mustaqil qarashlari shakllanayotganligini inobatga olib, ularning shaxsiy qarashlarini hurmat qilgan holda, dramatik asar tahlili epik va lirik asarlar tahlilidan birmuncha farq qilishini nazarda tutgan holda o'quv jarayonlari tashkil etilishi, savol va topshiriqlar ham shunga yarasha berilishi kerak. Chunki sahna uchun mo'ljallangan asarni o'qib tushunish, undagi voqea-hodisalarni idrok qilish, qahramonlarning xatti-harakatlari yuzasidan mulohaza yuritish o'quvchidan alohida sinchkovlikni, qolaversa, qo'shimcha aqliy zo'riqishni talab qiladi. Endi o'quvchi uchun na qahramonning aniq tasviri bor va na voqealar bayoni yoki tabiat tasvirlari mavjud bo'lmagan, faqatgina qisqa tushuntirishlar va asosan, dialoglar yordamidagina qahramonlarning asl qiyofalari ochilishi mumkinligiga o'quvchini ishontirish va shu asnoda dramatik asarni tahlilga tortish mumkin. Tahlil yakunida o'quvchi yoshlar odamzod faqat moddiy boyliklari bilan hayot kechira olmasligini, insonlarga hamisha ma'naviy, jismoniy hamda ruhiy boyliklar birgalikda zarur bo'lishini tushunib yetadilar, dramadagi qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning diologik va monologik nutqlari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy muhitning asl ahvolini, ma'rifat bilan jaholat o'rtasida doimo tinimsiz ravishda kurash davom etishini anglaydilar, jaholatdan, bilimsizlikdan, takabburlikdan keladigan oqibatlarni chuqur tahlil qiladilar va xulosa chiqaradilar.

Drama matni yuzasidan o'quvchilarni mustaqillikka o'rgatuvchi va fikrlashga undovchi savol va topshiriqlarni berish mumkin:

1. Drama mazmuni bilan tanishgach, qay holatga tushdingiz?
2. Drama nima uchun "Padarkush" deb nomlangan?
3. Toshmurodga xos xususiyatlar dramaning qaysi qismida yaqqol ko'ringan deb o'ylaysiz? Asarning o'sha qismini qayta o'qib, o'rtoqlaringiz bilan muhokama qiling.
4. Bugungi kunda o'smir bolalar o'rtasida Toshmurodga o'xshagan bolalar bor deb o'ylaysizmi? Fikringizni asoslang.



5. Dramadagi Domullo, Ziyoli obrazlariga tavsif bering. Ularning o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor qarating.
6. Dramadagi Boy obraziga e'tibor qarating. U ota sifatida sizda qanday taassurot qoldirdi? Hozirgi kunda ham Boy kabi otalar mavjudmi? Fikringizni dalillang.
7. Asarda Ona obrazi yetarlicha yoritilgan deb o'ylaysizmi? Uning nutqiga e'tibor bering. Onasi Toshmurod-ni: «He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod!» – deb qarg'ashiga nimalar sabab bo'ldi? Ona o'z farzandini qarg'ashi sizningcha qanday holat?
8. Dramadagi boshqa millat vakillari Liza va Artun kabi obrazlarning mavjudligi nimalardan dalolat beradi? Liza va Artun obrazlariga tavsif bering.
9. Nima deb o'ylaysiz, voqealar rivoji boshqacha bo'lishi mumkinmidi? Fikringizni izohlang.
10. ““Padarkush” dramasi mening talqinimda”, “Jaholat qurbonlari yohud zamonaviy “Toshmurodlar”” kabi mavzular tanlab, ijodiy ish yarating. Ijodiy ish shaklini (insho, esse, ijodiy bayon, taqdimot, talqin, tahlil) o'zingiz tanlang.

Drama uchun ajratilgan oxirgi soatda o'quvchilar o'zlari tayyorlab kelgan ijodiy ishlari taqdimotini o'tkazish va sinf o'quvchilarini munozaraga chorlash orqali asar matnini, qolaversa, mazmun-mohiyatini to'laqonli o'zlashtirilishida yaxshi samara beradi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar tufayli yuzaga keladigan harakatdir. Demak, jamiyat talabi bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmay qolishi yoki amaliyotdagi yangi shakllanayotgan me'yorlarning avvaldan mavjud me'yorlar o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuv natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga to'g'ri keladi va bu holat o'ziga xos harakatni talab qiladi. Natijada endi o'quv jarayonlarini an'anaviy tarzda, eskicha ko'rinishda, odatiy tartibda tashkil etishning imkoni bo'lmay qoladi. Innovatsion faoliyat o'zining tashkiliy-texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi yetarli bo'lgan pedagoglar tomonidan mazmunli tarzda tashkil etilishi natijasida o'quvchilar tomonidan ta'lim materiallarining to'laqonli o'zlashtirilishiga olib keladi. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'quvchilar jamoasini harakatga keltiruvchi,



olg'a undovchi, bunyodkorlikka yo'naltiruvchi, mehnatlarni rag'batlantiruvchi kuch sifatida ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

Adabiyotshunos olim Boqijon To'xliyev ta'kidlaganidek: "Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o'ziga xos mazmuni mavjud. Biroq ularni har doim bi xilda bo'ladi, deb tasavvur qilish to'g'ri emas. Har bir ijodkor, har bir asar bilan bog'liq holda tahlil ham o'ziga xoslik kasb etadi".

Yana bir olim A.Rasulov esa badiiy asarni o'qib-o'rganish jarayonlariga shunday baho beradi: "Badiiy asarni o'qish, xususan uqish o'ziga xos ijoddir. Kitobxon – badiiy matn xoh unga yoqsin, xoh yoqmagan bo'lsa-da, his-hayajonga beriladi, u haqda o'ylay boshlaydi. Kitobxon ijodining bu bosqichida badiiy matn yo badiiy asar sifatida qabul qilinadi, yo badiiylikka aloqasi yo'q matoh sifatida inkor etiladi".

Safo Matjonning qayd etishicha, "Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo'lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tugilgan g'oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo'lini tutadi".

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarining badiiy matn vositasida estetik didlarini oshirishda adabiy tahlil darslarini tashkil etish, bunday darslarni "Suhbat", Bahs-munozara", "Bir davra atrofida" kabi metodlardan foydalangan holda tashkil etish mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari endilikda har bir o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildira oladigan bo'lganlari bois ularda adabiyotshunoslik ilmidan xabardorligi ortib boradi. Badiiy matnni tahlil qilish orqali yozuvchi mahoratiga baho berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

11-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodi yuzasidan ajratilgan soatlarda uning "Kecha va kunduz" romanidan berilgan parchalar o'rganiladi. Ma'lumki, ushbu roman o'z davrining mashhur asari bo'lib, Cho'lpon jodining eng durdona namunasi hisoblanadi.



Bizningcha, o'quvchi diqqat-e'tiborini asar qurilishiga, unda ishlatilgan badiiy tasvir vositalariga, asar matnida yashiringan tagma'nolarga qaratish maqsadida quyidagicha tarzda savol va topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. "Kecha va kunduz" romaniga tanlangan epigrafga e'tibor bering. Nima uchun asarga ushbu epigraf tanlangan deb o'ylaysiz?

2. Asar boshlanishidagi tabiat tasviri sizda qanday taassurot uyg'otdi? Tabiat tasviridagi qaysi o'rinlar sizni o'ziga jalb qildi? Shu o'rinlarda muallifning so'zlar orqali yaratgan tabiat tasvirida qanday badiiy tasvir vositalari mavjud?

3. Qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorningiliq hovuri bilan ochila tushgan Zebi (Zebinisa)ning nega shunday holatga tushganligining sababini topishga harakat qiling.

4. Zebi bilan Saltining suhbatidan ularning o'xshash va farqli tomonlarini ilg'ash mumkinmi? Fikringizni asoslang.

5. Zebi tarbiya topgan xonadon haqida qanday fikrga keldingiz. Razzoq so'fi bilan Qurvonbibiga xos alohida sifatlarni aniqlang.

6. Asarda Miryoqub obraziga duch kelganingizda uni qanday tasavvur qildingiz? Nima uchun Miryoqub "Epaqa" laqabini olgan? Asar so'ngida Miryoqubdagi o'zgarishlarni tahlil qiling. Uning o'zgarishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang.

7. Sizningcha Akbarali mingboshi obrazi qanday odamlarning timsoli? U egallab turgan lavozimiga loyiq rahbarmi? Ushbu obraz orqali muallif kimlarga ishora qilgan, deb o'ylaysiz? Hozirgi kunda ham Akbarali qiyofasidagi insonlar bor, deb o'ylaysizmi?

8. Asarning eng ziddiyatli nuqtasini ko'ra oldingizmi? Fikringizni dalillang.

9. Nima deb o'ylaysiz, Akbarali mingboshining o'limiga kim aybdor? Mulohazalaringizni asoslashga harakat qiling.

10. Asardagi Noib to'ra obraziga xos qanday belgilarni angladingiz? Noib to'ra obrazisiz voqealar rivojini tasavvur qila olasizmi? Fikrlaringizni o'rtoqlashing.

11. Asarda haqiqiy fojia nimada, deb o'ylaysiz? "Kecha va kunduz" nomi asarga mos tushganmi? Siz asarni qanday nomlagan bo'lardingiz?

12. O'qiganlaringiz va o'ylaganlaringiz asosida "Aybsiz aybdor", "Haqiqiy tanazzul", "Durdoni asar", "Kecha bor, kunduz-chi?" kabi mavzulardan o'zingizga yoqqanini tanlab, uyda ijodiy ish yarating.



Bunday topshiriqlarni o'quvchiga yuklashda ularning uyda bo'sh vaqtlarida bemaolol ishlashlarini, ish turini o'zlari tanlashlari, taqdimotni og'zaki yoki yozma tarzda taqdim etishlari kabi natijalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida taklif etilgan savol va topshiriqlaro'quvchiga asarni erkin tahlil qilishga va o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma bayon qilishga imkoniyat yaratadi.

Adabiyotshunos olimi M.Umarovning fikricha: "Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya "ta'lim beruvchi – jarayon – ta'lim oluvchi" munosabatida tashkil etiladi, ya'ni ta'limning bu jarayonida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham bir chiziqda faoliyat olib boradi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'zi izlanishi, muammolar yechimini o'zi topishi, guruhlarda do'stona muhitni yuzaga keltirishi, mantiqiy fikrlab yakdil qaror chiqarishi, fikrlarini asosli, erkin va ravon bayon etishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ta'lim beruvchining o'zi esa dars jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi, yo'naltiruvchisi, kuzatuvchisi, nazoratchisi, ta'lim oluvchi (o'quvchi yoki tinglovchi)ning do'sti, hamkori, yordamchisi sifatida faoliyat yuritadi".

Fitrat ijodini o'rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etishda turli metod va usullardan foydalanish mumkin. Bu kabi zamonaviy darslar, albatta, o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fitrat ijodini o'rganish yuzasidan zamonaviy darslar tashkil etishda asardagi qahramonlar xarakter xususiyatlarini tahlilga tortish jarayonida "Blits-so'rov" metodi, Insert texnologiyasi, FSMU texnologiyasi kabi texnologiya va metodlardan foydalanish mumkin.

"Abulfayzxon" dramasini o'rganishda noan'anaviy metodlar haqida gap ketganda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi kunga kelib yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda noan'anaviylik asosiy ustuvor vazifaga aylandi.

Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" dramasini noan'anaviy shaklda tashkil qilish jarayonida "Abulfayzxon"ning mazmuni va mundariyasi bilan tanishgan kitobxon uning "murakkab to'qimali tragediya" ekaniga ishonch hosil qilishi zarur. Chunki bu asarda hamma narsa keskin o'zgarish va evrilishlarga asoslanadi.





“Abulfayzxon”ning Fitrat qalamiga mansub oldingi sahna asarlaridan farqi shundaki, unda ifodalangan voqealarda ma’lum umumlashma, realistik ruh, o‘tmish hayotiga, xonlik tartiblariga nisbatan tanqidiy qarashlar mavjudligidadir. Abulfayzxon 1711-1747-yillari Buxoro taxtining egasi bo‘lgan ashtarxoniyalar sulolasiga mansub hukmdorlardan. Uning uquvsizligi, maishatni mansabdorlik mas’uliyatidan yuqori bilishi va atrofidagi xoin amaldorlariga ishonishi natijasida mamlakat fojiga yuz tutdi.

Yuqoridagi kabi mulohazalarni o‘quvchilar tomonidan bildirilishiga erishish uchun o‘qituvchi darsni to‘g‘ri tashkillay olishi, o‘quvchilar uchun beriladigan savol va topshiriqlar to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘yilishi ijobiy samara beradi.

Bizningcha, drama mazmuni tolaqonli o‘zlashtirilishi va u o‘quvchining ko‘ngil mulkiga aylanishi uchun savol va topshiriqlar mazmuni quyidagi kabi tuzilishi mumkin:

1. Dramani o‘qish jarayonida ko‘nglingizdan nimalar kechdi? Kechinmalaringizni o‘rtoqlashing.
2. Asarni yana qayta rollarga bolib o‘qish kerak bo‘lib qolsa, qaysi rolni tanlar edingiz? Nima uchun?
3. Drama nima uchun “Abulfayzxon” deb nomlangan deb o‘ylaysiz? Siz asarni qanday nomlagan bo‘lardingiz?
4. Asarda Abulfayzxon obrazi to‘laligicha ochib berilganmi? Unga xos alohida xususiyatlar yaqqol ko‘rinib turgan o‘rinlarni topib o‘qing.
5. Sizningcha Abulfayzxon insoniy fazilatlardan mosuvo shaxsmi? Fikringizni dalillang. Agar dramani o‘qish jarayonida unga xos bo‘lgan insoniy xislatlarga duch kelgan bo‘lsangiz, shu o‘rinlar haqida aytib bering.
6. Abulfayzxonning a‘yonlari orasida yurt taqdiri haqida qayg‘uradiganlari bormi? Ularni kimlarning suhbatida bilib oldingiz. Shu o‘rinlarni qayta o‘qing.
7. Asardagi Ulfan obrazi sizda qanday taassurot uyg‘otdi. Uning “Podsholik - qon bilan sug‘orilaturg‘on bir og‘ochdir” degan fikrlari orqali unga baho bering.



8. Buxoro xonligi Abulfayzxonidan keyin nima uchun amirlik deb atalgan. Tarixiy faktlarga asoslanib, fikr bildiring.
9. Xonlikning tanazzuliga sabab bo'lgan omillarni keltirishga harakat qiling. Fikrlaringiz asosli bo'lsin.
10. Dramadagi xayol obraziga munosabat bildiring.
11. O'qiganlaringiz va uqqanlaringizga asoslanib, "Abulfayzxon" dramasi haqida o'zingizga yoqqan shaklda ijodiy izlanishlar olib boring.
12. Izlanishlaringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Demak, adabiyot o'qitishga bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondashish, zamonaviy o'quvchining estetik talab va ehtiyojlari doirasida ularga jadid adabiyoti namunalari tavsia etish, bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, albatta, hisobga olgan holda badiiy matn tahlilida tegishli ish turlarini tanlash natijasida adabiyot darslarining o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli va mazmunli bo'lishiga, ularning darslarda faol ishtirokchiga aylanishlariga erishish mumkin bo'ladi, pirovardida esa jadid adabiyoti namunalari o'quvchilarning ma'naviy mulkiga aylanishiga erishiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umarova M. Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta'limi. –T.: 2009. 4-son.
2. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: 2022.
3. Расулов А. Танкид, Талқин, Баҳолаш. – Тошкент, Фан, 2006.
4. Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.: Янги аср авлоди, 2010.
6. <http://oac.dsmi-qf.uz>. Qurbonova Feruza A`zamovna QDPI. Adabiy ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati.
7. [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz). Ботирова Шахло Исомиддиновна. Умумий ўрта таълим босқичида адабий таълим кластерининг шакл ва мазмуни
8. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz). Murodova F. Abdulla Qodiriy asarlarini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent. 2021.
9. [www.uzsmart.uz](http://www.uzsmart.uz). [Yozuvchilar](#) adabiyot to'g'risida.



10. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). kutubxonasi UO'K:316.75
11. [www.pdfactory.com](http://www.pdfactory.com). Адабий асар таҳлили
12. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz). Ғаниева Б.М. “Ўткан кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари қаҳрамонларининг қиёсий таҳлили

